



DIAGNOSIS AND TREATMENT METHODS OF COMBINED SPINE INJURIES AND KIDNEY CONTUSION IN CHILDREN AND ADOLESCENTS

Nazirkulov G.M.

Narzikulov U.K.

Ruzikulov U.Sh.

Tashkent State Medical University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18428690>

ARTICLE INFO

Received: 22nd January 2026

Accepted: 29th January 2026

Online: 30th January 2026

KEYWORDS

Children, adolescents, spine,
combined injury, treatment.

ABSTRACT

Spinal injuries are a type of injury that affect not only the vertebrae, but also all the surrounding tissues. These include injuries to soft tissues, tendons, ligaments, cartilage, intervertebral discs, nerves, blood vessels, and the spinal cord. Therefore, spinal injuries are severe, accompanied by impaired musculoskeletal function and sensitivity, and lead to numerous complications. By choosing the right treatment strategy, we achieved positive outcomes in 17 patients.

ДИАГНОСТИКА И МЕТОДЫ ЛЕЧЕНИЯ СОЧЕТАННЫХ ТРАВМ ПОЗВОНОЧНИКА И УШИБОВ ПОЧЕК У ДЕТЕЙ И ПОДРОСТКОВ

Назиркулов Г.М.

Нарзикулов У.К.

Рузикулов У.Ш.

Ташкентский государственный медицинский университет

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18428690>

ARTICLE INFO

Received: 22nd January 2026

Accepted: 29th January 2026

Online: 30th January 2026

KEYWORDS

Дети, подростки,
позвоночник, сочетенная
травма, лечение.

ABSTRACT

Травмы позвоночника относятся к типу повреждений, затрагивающих не только позвонки, но и все окружающие их ткани. К ним относятся травмы мягких тканей, сухожилий, связок, хрящей, межпозвоночных дисков, нервов, кровеносных сосудов и спинного мозга. Поэтому травмы позвоночника протекают тяжело, сопровождаются нарушением функций опорно-двигательной системы и чувствительности, приводят к многочисленным осложнениям. В результате правильного выбора тактики лечения у 17 пациентов под нашим наблюдением мы добились положительного исхода лечения.

BOLALAR VA O'SMIRLARDA ARALASH JAROXAT, BEL UMURTQASI JAROXATLARI VA BUYRAKNI LAT YEYISHINI DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASH USULLARI



IF = 9.2

EURASIAN JOURNAL OF MEDICAL AND NATURAL SCIENCES

Innovative Academy Research Support Center

www.in-academy.uz/index.php/ejmns**Nazirqulov G.M.****Narziqulov U.K.****Ruziqulov U.SH.**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18428690>**ARTICLE INFO**Received: 22nd January 2026Accepted: 29th January 2026Online: 30th January 2026**KEYWORDS**

Bolalar, o'smirlar, umurtqa pog'onasi, aralash jaroxat, davolash.

ABSTRACT

Umurtqa pog'onasi jaroxatlari nafaqat umurtqa suyaklari va shuningdek, uni o'rab turgan barcha to'qimalarni zararlanish bilan kechadigan jaroxatlar turiga kiradi. Bularga yumshoq to'qimalar, pay, boylam, tog'ay, umurtqalararo disklar, nerv, qon tomirlar va orqa miyani jaroxatlari kiradi. SHuning uchun umurtqa jaroxatlari og'ir kechib, tayanch- harakat tizmi funksiyalari va sezuvchanligini buzilishi bilan kechib, ko'plab asoratlarga va bemorlarni to'laqonli mehnat faoliyatini erta tugatishga olib keladi. Kuzatuvimizdagi 17 bemorda davolash taktikasini to'ri tanlash natijasida davolashni ijobiylikiga erishdik.

Dolzarbliqi. Hozirgi vaqtda tashkillashtirilmagan sport o'yinlari, texnikalarni rivojlanib ketishi va qish fasli natijasida bolalarda jaroxatlanish ko'rsatkichlari ham oshib bormoqda. Bunday aralash jaroxatlar bolalar hayotiga xavf solmoqda va ularning uzoq muddatga mexnat faoliyatini yo'qotishiga sabab bo'lib qolmoqda. Aralash jaroxatlar orasida umurtqa pog'onasining va bir vaqtda ichki organlar jaroxatlari bilan birga kelishi boshqa jaroxatlarga nisbatan ko'p uchramoqda.

Umurtqa pog'onasi jaroxatlari nafaqat umurtqa suyaklari va shuningdek, uni o'rab turgan barcha to'qimalarni zararlanish bilan kechadigan jaroxatlar turiga kiradi. Bularga yumshoq to'qimalar, pay, boylam, tog'ay, umurtqalararo disklar, nerv, qon tomirlar va orqa miyani jaroxatlari kiradi. SHuning uchun umurtqa jaroxatlari og'ir kechib, tayanch- harakat tizmi funksiyalari va sezuvchanligini buzilishi hamda, ko'plab asoratlarga va bemorlarni to'laqonli mehnat faoliyatini erta tugatishga olib keladi.

Mualliflar, ma'lumotlarda keltirishicha, umurtqa pog'onasi shikastlanishlari tayanch-harakat apparati jarohatlarining taxminan 17% ni tashkil qiladi, 2-3% hollarda esa orqa miya shikastlanishi bilan birga kechadi [1.6]. Umurtqa pog'onasi jaroxatlari asosan yo'l-transport hodisalarining 20-30% gacha, balandlikdan sakrab tushish, sport jarohatlari, ayniqsa ekstremal sport turlari bilan shug'ullanishda - suvga sakrash, skeytbording, tog'-chang'i sporti - katta foizni tashkil qiladi [2]. Ko'p hollarda odamlar o'z imkoniyatlarini ortiqcha baholaydilar va oddiy xavfsizlik qoidalarini e'tiborsiz qoldiradilar. Jaroxatlar orasida umurtka jaroxati 70% gacha ko'krak va bel qismlarida sodir bo'ladi [3]. Bolalarda tashkillashtirilmagan sport o'yinlari, turmushdagi jaroxatlar asosiy jaroxat mexanizmi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bir qancha zamonaviy, ya'ni raqamli rentgenologik, ul'tratovush tashxisi, MRT, MSKT tekshirish usullari yordamida umurtqa pog'onasi jaroxatlarini tashxislash murakkab bo'lmasada ularni asoratlarni davolash, reabilitatsiya muammolari, bemorlarni to'laqonli mehnat faoliyatini tiklash travmatolog-



ortoped shifokorlari oldidagi dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa aralash jaroxatlar yuzaga kelganda davolash muddati cho'zilib ketmoqda va ular natijasida kelib chiqqan asoratlarni uzoq muddat davolashga olib keladi [4]. SHuni nazarda tutish kerakki, aralash jaroxatlarda bel umurtqasini sinib siljishi to'g'ridan- to'g'ri buyrakka jaroxat yetkazibgina qolmay buyrakni jaroxatlanishiga, tomirlarni jaroxatlanishiga va butun bir tizim funksiyasini buzilishiga olib keladi. Bu holat bemorni umumiy axvolini yana ham og'irlashtiradi. Ko'pigina mualliflarning ma'lumotlaricha [1.5], asosiy e'tibor umurtqa pog'onasi jaroxatiga qaralib qolib, buyrak shikastlanishi diagnostikasi ikkinchi o'ringa tushib qoladi, chunki umurtqa suyaklari sinishi klinikasi jaroxatdan keyingi holatlarda yaqqol yuzaga chiqadi va buyrakni funksiyasini buzilish esa sekin--astalik rivojlanib boradi. Buyrakning jaroxatlanishida o'z vaqtida tashxis qo'ymaslik kasallikning og'irlashtirishiga sabab bo'lmoqda.

Maqsad. Aralash jaroxatlar bilan murojat etgan bemorlarni tashxislash va davolash natijalarini yaxshilash.

Material va usullar. Kuzatuvimizdagi 18 yoshgacha bo'lgan 17 bemorlarning 11 tasi o'g'il bolalarni va 6 tasi qiz bolalarni tashkil etdi. Kuzatuvimizdagi bemorlar barcha jaroxatdan keyin 2 soatgacha bo'lgan muddatda shifokorlarga murojat etishgan. Bulardan 14 bemor jaroxatdan keyingi 1 soat ichida murojat etishgan bo'lsa, 3 bemor 24 soat muddatida murojat etishgan. 17 bemordan 13 bemorda 4 bel umurtqasi kompression sinishi va buyrakni lat yeyishi kuzatildi. 4 bemorda buyrakni jaroxatlanishi 4-5 bel umurtqasini jaroxatlanishi bilan kuzatildi. Bemorlarni barchasida murojat etgan vaqtda bel umurtqasini rentgenogrammasi va buyrak jaroxati diagnostikasi uchun ul'tratovush tekshiruvini o'tkazildi. SHuningdek, barcha bemorlarda klinik va nevrologik tekshirish amaliyoti amalga oshirildi.

Natija va muxokama. Kuzatuvimizdagi bemorlarda aralash jaroxat bo'lganligi uchun umurtqa pog'onasi jaroxatlariga xos bo'lgan klinik belgilar aniq namoyon bo'lib buyrak jaroxatlanishi klinikalarini to'liq yuzaga chiqishini kechiktiradi. Qachonki, UTT va peshob analizlar natijalari olingach, ya'ni peshobda gematuriya kuzatilgach, buyrak lat yeyishi aniq yuzaga keldi. Kuzatuvimizdagi bemorlarni jaroxatdan keyingi klinikasida bel soxasida kuchli og'riq bezovta qilgan, og'riq butun umurtqa pog'onasi bo'ylab tarqalishi aniqlandi. Oyoq harakatli cheklangan, sust harakat vaqtida yonbosh- bel mushaklari tortishishi natijasida "Silin simptomi" aniq namoyon bo'ldi. Rentgenologik tekshiruvda 6 bemorda kompression, 5 bemorda ponasimon va 6 bemorda umurtqa suyagini chetini sinish aniqlandi. Barcha bemorlarga qo'ltiq ostidan funksional tortmaga olinib davolash muolajalari o'tkazildi. Birinchi kunda og'riq qoldiruvchi, simtomatik, LFK, yotoq yara bo'lmasligi uchun yengil uqallash muolajalari o'tkazildi. Umurtqa jaroxatlari buyrak jaroxatlari bilan kechgan bemorlarda davolash muolajalari bir vaqtini o'zida travmatolog, urolog va nevropatolog shifokorlari yordamida olib borildi. Barcha bemorlarga antibiotik, yallig'lanishga qarshi muolaja va qon to'xtatuvchi preparatlar buyurildi. Faqatgina 2 bemorda kichikinavaziv operatsiya, ya'ni kateter yordamida jaroxatlangan tomir emmobilizatsiyasi o'tkazildi.

Bel umurtqa pog'onasi jaroxatlangan 17 bemorlarni barchasiga 3 bosqichli reabilitatsiya o'tkazildi. Bundan maqsad jaroxatlangan soxadagi mushaklar korsetini



mustahkamlash, bel soxasidagi umurtqa funksiyalarini qayta tiklash, yumshoq to'qimaklar atrofiyasini oldini olish, mushaklar spazmni bartaraf etish, tonusni oshirish, qon aylanishini yaxshilash, suyaklar g'ovaklanishni oldini olish maqsadida yengil massaj. LFK, nevrologik muolajalar, vitaminoterapiya, kal'siy preparatlari, korset buyurildi. Bu mashg'ulotlar ohistalik bilan, aste-sekin amalga oshirilishi zarur.

Xulosa.

1. Aralash jaroxatlarda, bel umurtqalari va buyrak jarohatlarini erta tashxislash va to'g'ri davolash taktikasini tanlash bemorlarni mexnat faoliyatini erta tiklashga olib keladi.
2. Aralash jaroxatlardan bel umurtqasi sinishining diagnostikasi vaqtida shu soxaga yaqin bo'lgan organlarni ul'tratovush yordamida tekshirish ichki organlarni jaroxatlanishini aniqlash davolashni ijobiy bo'lishini taminlaydi.

References:

1. Биктимиров Т. З., Соколова Е. Ю. Травма позвоночника и спинного мозга. Практическое руководство. – М.: Реинфо, 2021. – 224 с.
2. Михайловский М.В. Повреждения позвоночного столба: с самого начала. *Хирургия позвоночника*. 2024;21(2):90-102.
3. Куфтов В.С., Усиков В.Д. Планирование репозиционно-стабилизирующего транспедикулярного остеосинтеза при повреждениях грудного и поясничного отделов позвоночника. *Хирургия позвоночника*. 2025;22(4):19-29.
4. Крылов В. В., Гринь А. А., Луцик А. А. Клинические рекомендации по лечению острой осложненной и неосложненной травмы позвоночника у взрослых. – М.: НП «Ассоциация нейрохирургов России», 2013. – 37 с.
5. [Dylan Hoyt¹](#), [Ivan Urits²](#), [Vwaire Orhurhu³](#), [Mariam Salisu Orhurhu](#). in the Management of Vertebral Compression Fractures 2020 Mar 20;24(5):16
6. [Ivo K Genev](#), [Matthew K Tobin](#). Spinal Compression Fracture Management. *Global Spine J* 2017.